


DAYJEST



INNOVATSION
RIVOJLANISH
AGENTLIGI



ILMIY-TEXNIK
AXBOROT
MARKAZI



SAMARQAND VILOYATINING INNOVATSION SALOHİYATI

MAHALLIY RESURSLAR ASOSIDA VAKSINA



O'zbekistonda ilk bor mahalliy chorva hayvonlarining kolibakterioz, salmonellyoz va pasterellyoz kasalliklariga qarshi polivalentli vaktsina ishlab chiqarildi. Mahalliy resurslar asosida tayyorlangan mazkur vaktsina bir vaqtda 3 xil kasallikning oldini olish xususiyatiga ega.

Qoramollar uchun bir doza vaksinaning narxi 3070 so'm, quylar uchun esa 1535 so'mni tashkil etmoqda. Bu xorijdan keltiriladigan vaktsinalarga nisbatan 3-4 barobar arzon. Hozirda vaktsina chorcachilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklariga o'z vaqtida yetkazib berilmoqda.



IMMUNOFERMENT VA EKSPRESS-TEST TIZIMI

Samarqand viloyatining Toyloq tumanida “Unigen” MCHJ tomonidan hayvonlarga xos kasalliklarga qarshi va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan immunoferment va ekspress-test tizimlarini ishlab chiqarish startap loyihasi amalga oshirilmoqda.

Rossiya Federatsiyasi tajribasi asosida hayvonlarda (asosan, qoramollarda uchraydigan) leykoz, brusellyoz kabi yuqumli, parranda grippi, o'lat singari o'ta yuqumli kasalliklarning xalqaro talablar asosidagi Immunoferment tahlilini (IFA) amalga oshirish to'plamlari ishlab chiqarilmoqda.

Respublikamiz bo'ylab hayvonlarda uchraydigan zoonoz infeksiyalarga qarshi diagnostika tadbirlarini o'tkazish maqsadida 12 turdagi diagnostika vositalarini ishlab chiqarish uchun biotexnologik usullar va ilmiy-texnik hujjatlar ishlab chiqildi hamda joriy etildi.



Hayvonlarda uchraydigan kasalliklar profilaktikasiga innovatsion yondashuv

“BIOAGROVET” MCHJ korxonasi tomonidan jami 6 turdagi mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda. Ushbu mahsulotlar 100 % mahalliy xomashyo, hamda seleksiyalangan mahalliy sanoat ishlab chiqarish shtammlari asosida tayyorlanmoqda.

Joriy etilayotgan barcha diagnostika va emlama mahsulotlari samarador innovatsion mahsulotlari biotexnologiyalar asosida Veterinariya ilmiy-tadqiqot insituti olimlari hamkorligida ishlab chiqarilmoqda.

2022–2024-yillar davomida quyonchilik klasterlari hamda Respublika hayvonlar kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi davlat markazi va viloyatlardagi laboratoriyalarga 1 mlrd. 200 mln. soʻmdan ortiq pullik xizmat koʻrsatildi.

TAKRORIY EKINLAR URUG'INI EKADIGAN KOMBINATSIYALASHGAN QURILMA

Hozirgi vaqtda respublikamizda sug'oriladigan yerlarda kuzgi ekinlar maydoni 1 mln. gektardan ziyod bo'lib, ular may oyining oxiridan iyun o'rtalariga qadar asosiy ekinlardan bo'shaydi. Ertaki sabzavot va kartoshkalardan bo'shaydigan maydonlar ham hisobga olinsa, oraliq ekinlarni ekish uchun respublikamizda 1,5 mln.ga maydon mavjud. Ushbu maydonlarda yil davomida oraliq ekinlar ekish qishloq xo'jaligi maydonlaridan samarali foydalanish, o'z navbatida, qishloq xo'jaligini rivojlantirishga hissa qo'shadi.

Shu maqsadda Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti olimlari tomonidan yozda g'alladan va boshqa ekinlardan bo'shagan maydonlarda tuproqqa bir o'tishda yo'l-yo'l ishlov berish va oraliq (takroriy) ekinlar urug'ini ekish texnologiyasi va ushbu texnologiyani amalga oshiradigan texnik vosita (kombinatsiyalashgan qurilma) ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy qilingan.



Ushbu qurilma orqali takroriy ekinlar urug'ini ekishda yonilg'i sarfi 55,2 – 61,4 foizga, mehnat sarfi 49,7 – 55,2 foizga va foydalanishdagi xarajatlar 47,3 – 54,6 foizga kamayadi.





PPD-tuberkulin preparati

O'zbekistonda ilk marotaba mahalliy shtamm asosida PPD tuberkulin diagnostikumi ishlab chiqarilmoqda. Mahalliy "M.bovis-149" tuberkulyoz shtammi "Mikroorganizmlar kolleksiyasi" depozitariysida saqlab kelinayotgan bo'lib, maxsus passport hamda patentga ega. "M.bovis-149" tuberkulyoz shtammidan **PPD-tuberkulin preparati** ishlab chiqarish va shartnoma asosida realizasiya qilish rejalashtirilgan. 2024-yilning birinchi yarmi davomida 106 mln. so'mlik PPD tuberkulin diagnostikumi ishlab chiqarildi va realizasiya qilindi. Mahsulotni ishlab chiqarish davom ettirilmoqda.


PPD tuberkulin diagnostikumi qishloq xo'jaligi chorva hayvonlarining xavfli tuberkulyoz kasalligini erta tashxislash imkonini beradi.

”

Mazkur loyiha Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan moliyalashtirilgan bo'lib, loyihani amalga oshirish doirasida:

- ✓ 9 ta yangi ish o'rni yaratildi.
- ✓ 1 million doza PPD tuberkulin preparati ishlab chiqarildi.
- ✓ Import o'rnini bosuvchi mahsulot yaratilib, 6,0 mlrd. so'm miqdorida davlat byudjeti mablag'lari tejab qolindi.
- ✓ Yangi mahsulot evaziga diagnostikaga bo'lgan ichki talab 25 foizga qondirildi.
- ✓ Tadqiqot natijalari yoritilgan 4 ta ilmiy maqola xorijiy va mahalliy jurnallarda chop etildi.

INNOVATION QURILMALAR



Urgut tumanidagi “UJAM INNOVATE” mas’uliyati cheklangan jamiyati tomonidan avtomobillar uchun avtohalokat paytida Favqulodda vaziyatlar va Sog’liqni saqlash vazirliklarining Call-markazlariga xabar beruvchi “SOS” qurilmasi ishlab chiqarilmoqda.

Shuningdek, spirtli ichimlik iste’mol qilgan haydovchilarning avtomobil boshqarishining oldini olish hamda avtohalokatlarni bartaraf etishga qaratilgan “Alkotestor” qurilmasi va ko’chma minimuzlatkich loyihalari amalga oshirildi. E’tiborlisi shundaki, bunday zamonaviy qurilmalar tumandagi "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlar tomonidan yaratilmoqda.



Avtomobillarda olib yurish uchun muzlatgich


BIRMAKON.UZ

kompaniyalar o'rtasida

tovarlar va xizmatlarni sotib olish va sotish jarayonini soddalashtirishga mo'ljallangan o'ziga xos onlayn platforma

Loyihadan ko'zlangan maqsad O'zbekistondagi kompaniyalarga hamkorlar, yetkazib beruvchilar va xaridorlarni oson topish imkonini beradigan qulay va samarali biznes muhitini yaratishdan iborat. Bundan tashqari, Alibaba.com va Ozon.ru vakillari bilan hamkorlikda biznes segmentining xalqaro bozorga chiqishiga ko'maklashish ko'zda tutilgan.

BIRMAKON.UZ – Markaziy Osiyoning boshqa bozorlari bilan integratsiyalashuv uchun katta imkoniyat!




Ваши магазины



Bestsellerlar

Yangi trend

To'plam qizg'in pallaga kirayotganiga e'tibor bering.



Gulli mini ko'ylak

\$ 29.99 \$-79.99

Sotib olish



Yengil kardigan

\$ 39.99 \$-69.99

Sotib olish



Katta o'lchamdagi jinsi ter

\$ 29.99 \$-49.99

Sotib olish



Latner qizil sumka

\$ 19.99 \$-39.99

Sotib olish



URGUT INNOVATION TUMANIDA


INNOVATION TELEMEDITSINA

JORIY ETILDI



Urgut innovatsion tumanida "Innovative developers" MCHJ tomonidan "Oilaviy poliklinikalarda innovatsion telemeditsina" loyihasi amalga oshirilmoqda.

Hindistonning "Afzal Healthcare" firmasi bilan hamkorlikda bosh miya va boshqa a'zodagi o'simtalardan xalos etish, jigar sirrozi va shu kabi boshqa og'ir xastaliklarni davolash amaliyoti yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, buyrak ko'chirish amaliyotini amalga oshirish imkoniyati ham mavjud. Hozirga qadar "Ayollar daftari" va "Ijtimoiy himoya reestri"ga kiritilgan 695 nafar fuqaroga bepul teletibbiyot xizmati ko'rsatildi.





IRSIY KASALLIKLARNI ANIQLOVCHI

GENETIK LABORATORIYA

Qarindoshlar o'rtasidagi nikoh natijasida dunyoga kelgan bolalarda aqliy zaiflik yoki boshqa turdagi og'ir tug'ma nuqsonlar xavfi ikki baravar ortadi. Hatto chaqaloqlar o'limi ham ko'p kuzatiladi.

Ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda dunyoda har 100 boladan 5-6 nafari genetik kasallik bilan tug'iladi.

Urgut innovatsion tumanida "GenMedical" MChJ tomonidan irsiy kasalliklarni barvaqt aniqlashga yo'naltirilgan genetik laboratoriya tashkil etildi. Bugungi kunga qadar 1500 dan ortiq bemorlar tekshiruvdan o'tkazildi. Irsiy kasalliklarning oldini olishga qaratilgan tibbiy choralar natijasida tumanda irsiy kasalliklar 40 foizga kamaydi.



**“Ko’zi ojizlar uchun
innovatsion qurilmalar”**

EZGU TASHABBUSGA QO‘SHILING!

Urgut innovatsion tumanida yakka tartibdagi tadbirkor Yusupov Lazizbek tomonidan "Yusupov Lazizbek" YaTT korxonasida ko’zi ojizlar uchun **«Brayl displeyi», «Brayl komyuter klaviaturasi», «Brayl mobil klaviaturasi» va ko’zi ojizlar uchun hassalar** ishlab chiqarilmoqda.

Ishlab chiqarilgan mahsulotlar loyiha tashabbuskorlari tomonidan aholining ehtiyojmand qatlamiga yetkazib berildi. Viloyatdagi 59-sonli ko’zi ochizlar maktabiga ko’zi ojizlar uchun 129 dona maxsus klaviatura, 33 dona aqlli hassa, 6 dona brayl displeyi va 47 dona Rubik kubigi sovg’a qilindi.



CSTI.UZ

MAHALLIY XOMASHYOLARDAN BOSMAXONALAR UCHUN TERMOYELIM



Urgut innovatsion tumanida mahalliy xomashyodan termoyelim ishlab chiqarilmoqda. Ushbu mahsulot import o'rnini bosuvchi mahsulot bo'lib, ta'lim muassasalari bosmaxonalarida foydalanishga mo'ljallangan.



SAMARQANDDA

Yangi muqobil energiya manbai

*“Uzbiogaz” MChJ tomonidan uy sharoitida
foydalanish uchun quvvati 15 m3
reaktorga ega bo‘lgan biogaz qurilmalari
ishlab chiqarilib, aholi xonadonlariga
o‘rnatib berilmoqda.*



Ushbu qurilmadan fermer xo‘jaliklari va xonadon tomorqalarida foydalanish mumkin. Qurilmaning ijtimoiy-iqtisodiy samarasi yuqori bo‘lib, u uy hayvonlarining har qanday organik chiqindilaridan biogaz ishlab chiqaradi. Biogaz muqobil energiya manbai sifatida xonadonlarda energiyaga bo‘lgan ehtiyojni qondiradi. Bundan tashqari, uy sharoitida yuqori sifatli o‘g‘it ishlab chiqarish va sotish imkoniyati ham yaratiladi.



CSTI.UZ



Ilmiy-texnik axborot markazi



Dayjestni elektron
formatda o'qish



CSTI.UZ saytiga havola



Manzil: Toshkent shahar,
Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 7-uy
